



BUXORO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI


XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL
YANVAR-MAY



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydag'i PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)
O'sish sur'ati (% da)

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023- yilning yanvar-may** oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7 364,4 mlrd. so'mga** yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan (**113,9 %**) o'sish sur'ati **111,5 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriya. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

¹⁾ Shu va keyingi o'rinnlarda 2022-2023- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-may)




Shahar va tumanlar	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati ¹⁾	7 364,4	100,0	111,5
Olot	232,0	3,2	108,1
Buxoro	364,8	5,0	108,3
Vobkent	442,3	6,0	84,5
G'ijduvon	883,5	12,0	109,5
Kogon	245,9	3,3	117,4
Qorako'l	308,8	4,2	110,1
Qorovulbozor	135,5	1,8	111,2
Peshku	372,0	5,1	124,8
Romitan	393,0	5,3	111,6
Jondor	388,8	5,3	110,5
Shofirkon	316,5	4,3	109,7
Buxoro sh.	3 012,7	40,9	116,4
Kogon sh.	268,6	3,6	117,1

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (2022-2023- yillardan yanvar-may)



2023- yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 658,1 ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-may** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **109,7 %** ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-may)

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	3 658,1	109,7
Olot	2 252,9	106,5
Buxoro	2 082,1	106,6
Vobkent	3 027,3	83,1
G'ijduvon	2 780,8	107,6
Kogon	2 969,3	115,2
Qorako'l	1 817,8	108,6
Qorovulbozor	6 913,4	108,4
Peshku	2 881,8	122,6
Romitan	2 633,8	109,6
Jondor	2 130,2	108,7
Shofirkon	1 715,6	108,2
Buxoro sh.	10 395,8	114,2
Kogon sh.	4 210,4	114,7



2022- yil yanvar-may
oylariga nisbatan **2023- yil yanvar-may** oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi **665,9** mlrd. so‘mga oshib, **4 410,5** mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiylajmida ularning ulushi **59,9 %** ni, shu jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar **18,4 %** ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sohasi iqtisodiyotning barqaror o’sishiga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga, aholi daromadlarini oshishi va farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-may, mlrd. so‘mda)

Buxoro viloyati – 4 410,1

Buxoro sh. –	1 128,0
G‘ijduvon –	731,3
Jondor –	305,7
Buxoro –	288,8
Romitan –	282,4
Peshku –	267,7
Vobkent –	251,4

Shofirkon –	246,8
Qorako‘l –	241,4
Olot –	200,0
Kogon sh. –	187,3
Kogon –	183,8
Qorovulbozor –	95,5

Xizmatlar sohasida band bo‘lgan kichik tadbirkorlikning umumiylajmida **25,6** foiz yoki **1 128,0** mlrd. so‘m Buxoro shahriga to‘g‘ri kel-di.



Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-may)



Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Shahar va tumanlar	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	7 364,4	100,0	111,5
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	300,5	4,1	122,5
Moliyaviy xizmatlar	1 641,0	22,3	132,0
Transport xizmatlari	1 500,4	20,4	106,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 355,8	18,4	106,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	290,1	3,9	104,2
Savdo xizmatlari	2 201,3	29,9	102,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	138,7	1,9	101,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	403,8	5,5	139,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	139,4	1,9	102,1
Ijara xizmatlari	150,0	2,0	98,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	147,9	2,0	99,5
Shaxsiy xizmatlar	168,6	2,3	103,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	63,0	0,8	101,7
Boshqa xizmatlar	219,7	3,0	103,9

135,3 132,0



2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan 2023- yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **517,6** mlrd. so'mga oshib, **1 641,0** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **22,3** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **132,0** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-may)

2023- yilning yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **90,9** % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

90,9 %

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

5,3 %

Yordamchi moliyaviy faoliyat

3,8 %

Moliyaviy xizmatlarning umumiyligi Buxoro shahrining ulushi **65,8** foizni yoki **1 079,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan Buxoro viloyatida yuqori o'sish sur'ati **129,9** % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-may oylarida transport xizmatlari hajmi 1 500,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o‘sish sur’ati 106,6 % ni tashkil etdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 20,4 % ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo‘yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog‘liq bo‘lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- may holatiga ko‘ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog‘liq bo‘lib, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2 277 birlikni, yoki ularning umumiyligi sonining 7,6 % ini tashkil etdi. Ulardan 2 267 birlik (99,6 %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

O‘zbekiston geografik joylashuvining muhim xususiyati zamonaviy transport kommunikatsiya tizimining mavjudligidir.

2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan Buxoro shahrida transport xizmatlari hajmi 70,9 mlrd. so‘mga oshib, hisobot davrida 364,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan. 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan mazkur shaharda transport xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati 109,3 % ni tashkil etgan.

Qorovulbozor tumanida ushbu ko‘rsatkich 37,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda mazkur xizmatlarning o‘sish sur’ati 104,9 % ni tashkil etdi.




Savdo xizmatlari

(2022-2023- yillar yanvar-may)

2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-may** oylarida savdo xizmatlari hajmi **287,4** mlrd. so‘mga oshib, **2 201,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan ushbu xizmat turi bo‘yicha o’sish sur’ati **102,5 %** ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya’ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiyligi sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi sharhnomalari, komissiyalar yoki agentlik sharhnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



2023- yilning 1- yun holatiga ko‘ra xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida savdo faoliyati bilan band bo‘lganlarning ulushi **30,2 %** yoki **9 080** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,7 foizi** (**9 049** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Savdo xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-may)



24,2 %

**Ulgurji savdo xizmatlari,
avtomobillar va mototsikllar
savdosidan tashqari
xizmatlar**

69,3 %

**Avtomobillar va
mototsikllar savdosidan
tashqari chakana savdo
bo'yicha xizmatlar**

6,5 %


**Avtomobillar va mototsikllar
ulgurji va chakana savdosi,
jumladan, ularni ta'mirlash
xizmatlarini qo'shgan holda
xizmatlar**



2023- yil yanvar-may oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiylajining deyarli to'rtadan uch qismini, ya'ni **69,3 %** ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	2 201,3	100,0	102,5
Olot	87,6	4,0	103,8
Buxoro	132,8	6,0	106,8
Vobkent	233,2	10,6	67,3
G'ijduvon	325,9	14,8	105,2
Kogon	119,2	5,4	127,3
Qorako'l	112,3	5,1	104,0
Qorovulbozor	67,5	3,1	107,9
Peshku	174,3	7,9	141,3
Romitan	122,4	5,6	106,1
Jondor	122,0	5,5	105,2
Shofirkon	120,1	5,5	105,7
Buxoro sh.	502,1	22,8	106,5
Kogon sh.	81,9	3,7	103,9



2023- yilning yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **300,5** mlrd. soʻmdan iborat boʻlib, **oʻtgan yilning mos davriga** nisbatan oʼsish surʼati **122,5 %** ni tashkil etdi.




■ Oʼsish surʼati, % da ■ Hajmi, mlrd. soʻmda

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat koʼrsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yigʼindisi sifatida aniqlanadi.


2023- yilning 1- iyun holatiga koʼra “Axborot va aloqa” faoliyati bilan shug’ullanuvchi korxona va tashkilotlar soni **328** birlikka yetdi, shundan **311** birligi (umumiylar sonining **94,8 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-may)



Ta'lif sohasidagi xizmatlar (2022-2023- yillar yanvar-may)



2023- yil yanvar-may oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **403,8** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **139,7 %** ni tashkil etdi.



Ta'lif sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lif sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yilning yanvar-may** oylarida ularning ulushi **77,3 %** ni tashkil etdi.

"Ta'lif" seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'lifni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lif, shuningdek, kattalar uchun ta'lif (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lif sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lif sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.





111,6

102,1

120,4

139,4

2022- y.

2023- y.

■ O'sish sur'ati, % da ■ Hajmi, mlrd. so'mda

2023- yil yanvar-may

oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **139,4** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,9** % ini tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning 1- iyun holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **780** birlikni tashkil etdi, shundan **701** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-may, mlrd. so'mda)



2022- yilning yanvar-

may oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **55,4** mlrd. so'mga oshib, **290,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **2 148** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **2 136** birligi (umumiyligining **99,4** %) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-may)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2022-2023- yillar yanvar-may)



2023- yilning yanvar-may oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **138,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-may** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,7 %** ni tashkil etgan.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (2022-2023- yillar yanvar-may)



2023- yilning yanvar-may oylarida me'mor-chilik, muhandislik izlanish-lari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **63,0** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiyligi hajmidagi ulushi esa **0,8 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,7 %** ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

**Buxoro viloyati –
63,0**

(2023- yil yanvar-may, mlrd. so'mda)

Buxoro sh. – 50,1	Vobkent – 0,8
Jondor – 2,8	Peshku – 0,7
Kogon – 2,6	Qorako'l – 0,5
Buxoro – 2,3	Shofirkon – 0,5
G'ijduvon – 1,3	Qorovulbozor – 0,4
Romitan – 0,8	Kogon sh.– 0,2

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2022-2023-yillar yanvar-may)



108,1

99,5



2022- y.

122,9



2023- y.

147,9


■ O'sish sur'ati, % da

■ Hajmi, mlrd. so'mda

2023- yilning yanvar-may oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **147,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **99,5 %** ni tashkil etdi.




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-may)



- kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
- kommunikatsiya uskunalarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
- maishiy elektronika priborlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
- maishiy priborlar, uy va bog' inventarlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
- poyabzal va charm buyumlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
- mebellar va uy-ro'zg'or anjomlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
- soatlar va zargarlik buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
- boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalarini (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruchchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

2022- yilning yanvar-mayiga nisbatan o'rgani-
layotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **10,0** mlrd.
so'mga oshib, **150,0** mlrd.
so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi
2,0 % ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob- uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-may** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **57,9 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdarligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

